

TEMURIYLAR DAVRI SAMARQAND TARIXI INGLIZ TILLI
TARIXSHUNOSLAR TALQINIDA

Mavlanov.A

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ``Tarixshunoslik va manbashunoslik, tarixiy tadqiqot usullari`` kafedrası doktoranti

Anotatsiya. Samarqand, Temuriylar davrida, o'zining eng yuqori rivojlanish cho'qqilariga erishgan Markaziy Osiyoning eng muhim madaniy, ilmiy va arxitektura markazlaridan biri bo'lib, butun dunyo tarixida ajralib turadi. Amir Temur (Tamerlan) va uning avlodlari Samarqandni harbiy va siyosiy poytaxt sifatida rivojlantirish bilan birga, madaniy va ilmiy yuksalishlarga ham asos soldi. Ushbu maqola, ingliz tilidagi manbalarda Temuriylar davri Samarqandining tarixiy, madaniy, ilmiy va arxitekturaviy ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, Ulug`bek, Shohi-Zinda, Bibixonim, Xuroson, temuriylar, Buyuk Ipak yo`li.

Abstract. Samarkand, which reached its peak of development during the Timurid period, is one of the most important cultural, scientific and architectural centers of Central Asia, and stands out in world history. Amir Temur (Tamerlane) and his descendants, along with developing Samarkand as a military and political capital, also laid the foundation for cultural and scientific advancements. This article is devoted to the analysis of the historical, cultural, scientific and architectural significance of Samarkand during the Timurid period in English-language sources.

Keywords: Maverounnahr, Ulugbek, Shahi-Zinda, Bibikhanim, Khurasan, Timurids, Great Silk Road.

Temuriylar davrining tarixi va Temurning Samarqanddagi siyosiy roli

Temuriylar sulolasi va Amir Temurning Samarqanddagi siyosiy va madaniy faoliyati o'ziga xos tarixiy ahamiyatga ega. Amir Temur 1370-yillarda Samarqandni poytaxt qilib, o'zining Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston, va boshqa hududlardagi harbiy yurishlari orqali yangi siyosiy imperiyani tashkil etdi. Temuriylar sulolasi, xususan Samarqandda, ilm-fan, san'at, va arxitektura sohalariga ulkan hissa qo'shdi.

Ingliz tilidagi manbalarda, masalan, John Woodsning ``The Timurid Period and the Development of Islamic Architecture in Central Asia`` asarida, Temuriylar davrining siyosiy va madaniy rivojlanishi haqida muhim tahlillar keltirilgan. Woods Samarqandning

Temuriylar davrida nafaqat siyosiy markaz sifatida, balki ilmiy va madaniy rivojlanishning markazi sifatida ahamiyatini ta'kidlaydi. [1]

Samarqand Arxitekturasini va Temuriylar inshootlari borasida ham ko'plab tadqiqotlar ko'zga tashlanadi. Samarqandning Temuriylar davridagi eng diqqatga sazovor merosi uning arxitekturasini hisoblanadi. Temuriylar Samarqandda ko'plab ulkan inshootlarni qurishga buyurtma berishgan. Registon maydoni, Bibi-Xonim masjidi, va Shohi-Zinda kabi inshootlar nafaqat me'moriy innovatsiyalarni namoyish etadi, balki ularning dizayni va bezaklarida Temuriylar sulolasining siyosiy va madaniy o'ziga xosligini ko'rsatadi. Richard Nelson Frye o'zining ``The Heritage of Persia`` asarida Temuriylar arxitekturasining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi. [2]

Richard Nelson Frye ``The Heritage of Persia`` nomli asarida arablarning O'rta sharq hamda Markaziy Osiyoga yurishlari davridan boshlab, xonliklar davrigacha bo'lgan sulolalar hamda davlatlarning tarixini yoritib beradi. Shu asnda ``The Heritage of Persia`` kitobining XXIV bobi temuriylar davri to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchi bu bobni yozishda Kalkuttada tarjima qilingan Sharafiddin Ali Yazdiyning ``Zafarnoma`` asaridan keng foydalangan.

(Snoska 2)

Ulug'ek va Samarqanddagi ilmiy rivojlanish Samarqandning ilmiy yuksalishi, ayniqsa, Ulug'ekning astronomiya va matematika sohasidagi kashfiyotlari bilan bog'liq. Ulug'bekning Samarqanddagi rasadxonasi o'z davrining eng ilg'or ilmiy markazlaridan biri hisoblangan.

G'arb tadqiqotchilari temuriylar davri ilm-fani rivojiga yuqori baho beradi. Ko'p ehtimol ikinchi renessansning yuqori bosqichi ham aynan sulola nomi hamda ular olib brogan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog'liqdir. Fransuz ma'rifatparvari Volter ham Ulug'bekning Samarqandda olib brogan ilmiy faoliyati, u tomonidan asos solingan madrasa hamda rasadxona faoliyatiga yuqori baho beradi. Shuningdek, UNESCO direktori o'rinbosari Xubert Gizen tomonidan 2016-yilda ``Samarqand madaniyatlar tutashgan maskan`` degan, fikr ham bejiz aytilmagan. Ingliz tadqiqotchisi John Woods o'z kitobida ayni shu ilmiy jarayonlarga katta o'rin beradi. Mirzo Ulug'bek tomonidan olib borilgan jarayonlarni batafsil yoritib beradi. John Woods o'z asarida Ulug'bek va uning ilmiy maktabining ilm-fanga qo'shgan hissasini tahlil qiladi. [3]

Samarqand Temuriylar davrida nafaqat ilm-fan, balki adabiyot va san'at markazi ham bo'ldi. Mirzo Alisher Navoiy, Jomiy va boshqa buyuk shoirlar Temuriylar saroyida faoliyat yuritgan.

Richard Nelson Frye Temuriylar davrining adabiy yutuqlarini chuqur tahlil qilgan. [4]

Samarqandning Temuriylar davridagi madaniy merosi faqat shahar inshootlari va ilmiy kashfiyotlar bilan cheklanmaydi. Temuriylar avlodlari, xususan Shahruh va Ulug' Beg davrida, madaniy yuksalishni davom ettirdi.

Christopher Melville ``Samarqand and the Timurid Empire`` asarida, Samarqandning madaniy merosi va uning dunyo tarixidagi o‘rnini tahlil qilgan. [5]

Temuriylar davrining Samarqandga qo‘shgan hissasi – uning arxitektura, ilm-fan va madaniy yuksalishdagi roli – dunyo tarixida katta o‘rin egallaydi. Ingliz tilidagi olimlarning tadqiqotlari orqali Samarqandning Temuriylar davridagi o‘zgarishlari va jahon madaniyatiga ta’siri yoritilgan.

REFERANS:

1. Woods, John. The Timurid Period and the Development of Islamic Architecture in Central Asia. Cambridge University Press, 1990.

2. Frye, Richard Nelson. The Heritage of Persia. The Ronald Press Company, 1962. Page of 166.

3. Woods, John. The Timurid Period and the Development of Islamic Architecture in Central Asia.

4. Frye, Richard Nelson. The Heritage of Persia. The Ronald Press Company, 1962. Page of 178

5. Melville, Christopher. Samarqand and the Timurid Empire. Oxford University Press, 1996.